

O‘zbekiston Respublikasi  
Kambag‘allikni qisqartirish  
va bandlik vazirining  
2023-yil “26” maydagi  
89- buyrug‘iga  
4-ilova

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi xodimlari uchun  
korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish yuzasidan  
USLUBIYOT**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1.Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalar mehnat organlari va muassasalari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarida ichki idoraviy o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarni belgilaydi.

2.Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalar korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni oldini olish va ularni sodir etishga olib kelayotgan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularni qonun hujjatlariga hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning ichki hujjatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv dasturlari va materiallari ushbu Uslubiy ko‘rsatmalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

4. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining kadrlar boshqarmasi/bo‘limi xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlaydi va tahlil qiladi.

**2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlarining asosiy tamoyillari**

5. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari quyidagi tamoyillarga tayanadi:

**xolislik va ilmiylik** - korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv materiallarini tayyorlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar ularni ilmiy faktlar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlaydi;

**amaliylik** - vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xodimlarini korrupsiyaga qarshi o‘qitishning shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, haqiqiy vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek, xodimlar tomonidan olingan materiallarni tushunish darajasi va muayyan amaliy vazifalarni hal qilish uchun qo‘llay olish imkoniyatini, keyinchalik nazoratini qamrab olishi zarur;

**ketma-ketlik va tizimlilik** - korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv materiallarining tayyorlash hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xodimlarini o‘qish tartibi ketma-ket tarzda, tuzilmaviy-mantiqiy tizim shaklida

amalga oshiriladi. O‘qitish umumiy tushunchalar va hodisalardan yakka tartibga, soddadan murakkabga, bazaviydan rivojlanganga asosida amalga oshiriladi;

**hammaga mo‘ljallanganlik** - korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarining mavjud bilimlari va ko‘nikmalarini hisobga olish, barcha xodimlarga tushunarli bo‘lgan o‘quv materiallarini shakllantirish asosida amalga oshiriladi;

**differensial yondashuv** - vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari muayyan funksiyalar/ faoliyat yo‘nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalarini inobatga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar qo‘srimcha maxsus tarzda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitiladi;

**o‘qitish ishlarining usullari va shakllarini doimiy asosda takomillashtirish** - vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar o‘quv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitish, shuningdek, xodimlarning bilimlarni o‘zlashtirganligini tekshirishda texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsiyaviy yutuqlaridan foydalanishga intiladi.

### **3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlarining ustuvor vazifalari**

6. O‘qitish ishlarining shakli va usullarini belgilash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv materiallarini shakllantirishda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishga mas’ul bo‘lgan shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga asoslanishlari lozim:

korrupsiyaning mohiyati, uning shakllari, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘lishi hususiyatlari, ushbu voqelikning sabablari, ijtimoiy-xavfli va zararli oqibatlari haqida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xulq-atvorning ma’naviy-axloqiy qadriyatlari qat’iy va so‘zsiz rioya qilinishiga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

xodimlarni vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda amal qiladigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tamoyillar, talablar va tartib-taomillar bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuz berishiga ko‘maklashuvchi holatlarni aniqlash va oldini olish, korrupsiyaviy xulq-atvorga nisbatan murosasizlikni namoyish etish qobiliyatini shakllantirish.

### **4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlarini shakllantirish va o‘tkazishga mas’ul shaxslar**

7.Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv rejalarini tayyorlashda qatnashadi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv materiallarini ishlab chiqadi, o‘qitish

ishlarini muvofiqlashtiradi, shuningdek, vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tamoyillari va talablariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi o'qitishga inson resurslari va kadrlar salohiyati boshqarmasi hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarining boshqa tarkibiy bo'linmalarini jalg qiladi.

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi o'qitish rejalarini tayyorlash va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini ishlab chiqishda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarini malakasini oshirish kurslari bilan hamkorlik qiladi.

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi o'quv materiallarini tayyorlashga va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarini xalqaro yoki tegishli tajribaga ega bo'lgan mahalliy tashkilotlar bilan shartnoma tuzish asosida uchinchi shaxslarni jalg qilishi mumkin.

### **5-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish muddatlari va davriyili**

11. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan majburiy tarzda malaka oshirish davomida ta'lim olganligi hamda qo'shma konferensiyalar, yig'ilishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

13. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xodimlari quyidagi hollarda bir yilda bir martadan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qishda ishtiroy etadi:

agar xodim korrupsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan lavozimni egallab turgan bo'lsa;

lavozimga tayinlash va rotatsiya qilinishda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatiga kirsa;

vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik aniqlanganda yoki bajarilayotgan funksiyaning korrupsiyaviy xavfi darajasi oshganda;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri, uning o'rinosbosarlari hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining topshirig'iga ko'ra.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish kunduzgi shaklda yoki masofaviy o'qitish elektron platformasidan foydalangan holda xodimlarning zaruriy tayyorgarligi va bilimlarini oshirish hamda nazorat qilish ishlari o'tkazilishi mumkin. Barcha vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlari korrupsiyaga

qarshi kurashish bo‘yicha o‘qishda ishtirok etishi uchun ushbu masofaviy o‘qitish elektron platformasiga kirish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri, uning o‘rinbosarlari hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar rahbarlari tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

## **6-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish turlari va shakllari**

16. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyo‘qitish;

korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriqoq bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish;

vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlarini joriy etishga mas’ul bo‘lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qishlarni tashkil etish.

17. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyo‘qitish vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning ichki hujjatlari, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganda harakat qilish qoidalari va tartibi, shuningdek, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni olishga qaratiladi.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyo‘qitish natijalariga ko‘ra vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xodimlari o‘rganilgan materiallarni o‘zlashtirilganligi va tushunilganligini hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishlarini tekshirishga qaratilgan test topshirishlari lozim.

19. Vazirlik va tizimidagi tashkilotlar xodimlari kamida 90 foizdan ko‘p savollarga to‘g‘ri javob bersa, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyo‘qitishni muvaffaqiyatli tamomlagan hisoblanadi.

20. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriqoq bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish korrupsiyaga qarshi umumiyo‘qitishdan tashqari quyidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni identifikatsiya qilish va kamaytirish usullari va turlari;

korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida yuqori lavozimlarda korrupsiyaning namoyon bo‘lish shakllari va turlarini.

21. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriqoq bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyo‘qitishdan qat’iy nazar amalga oshiriladi.

22. Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xodimlari ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri tomonidan tasdiqlangan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

23. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xodimlar uchun o‘qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ekspertlarni jalg qilgan holda malakasini oshirish, shuningdek, ixtisoslashtirilgan vakolatlari uchinchi shaxslar tomonidan tashkil etiladigan treninglarda qatnashish shaklida har ikki yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

24. Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalarining 26-bandida ko‘rsatilgan malaka oshirish va treninglar kamida 40 (qirq) soat davomida o‘tkaziladi.

25. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi qonunchiligidagi o‘zgarishlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarni qurish va davlat organlarida korrupsiyani bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishini o‘rganishni qamrab olishi lozim.

## **7-bob. Korrupsiyaga qarshi o‘quv dasturi**

26. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umumiyoq o‘qitish amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi hamda yangi bilimlarni o‘rgatishi yoki:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni, vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlarni, jumladan, o‘rnatilgan taqiqlar, cheklowlar, majburiyatlar va ruxsatnomalar, xizmat xulq-atvoriga qo‘yiladigan talablar, korrupsiyaviy tavsifdagi huquqbuzarliklar aniqlanganda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlari harakatlarining ketma-ketligi bilan bog‘liq bilimlar;

vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatining turli yo‘nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyatini, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan choralarini amaliyatda qo‘llash mahorati bo‘yicha olingan bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini takrorlashni ta’minlashi zarur.

27. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv materiallariga mazkur Uslubiy ko‘rsatmalarining ilovasida ko‘rsatilgan namunaviy mavzular kiritilishi mumkin.

## **8-bob. Qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish kiritish tartibi**

28. Mazkur Uslubiy ko‘rsatmalar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning ichki hujjatlari o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiy ko‘rsatmalarga ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi  
xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv  
NAMUNAVIY DASTURI**

<b>Mavzu</b>	<b>Mavzu tarkibi</b>
Korrupsiyaning tabiatи.	Korrupsiya tushunchasi, shakllari va sabablari; Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida; jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyot; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjalalar.
Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish usullari.	Korrupsiyaga qarshi kurashish elementlari, shuningdek, vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muhim choralarining tahlili; Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, aniqlash va hal qilish; Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar xodimlarining xulq-atvor qoidalari;

	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning majburiyatlari va vakolatlari;</p> <p>Ma’muriy tartib-taomillar va reglamentlardan foydalanish. Ma’muriy chegaralarni olib tashlash;</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik xavfi aniqlanganda amalga oshiriladigan harakatlar.</p>
Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va odatiy korrupsiyaviy huquqbuzarliklar.	<p>Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklarning asosiy turlari;</p> <p>Davlat mulki va budget mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tanlovga oid tartib- taomillarning samaradorligi;</p> <p>Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning xaridlarni amalga oshirish faoliyati doirasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Jismoniy va yuridik shaxslarga ommaviy xizmatlarni ko‘rsatishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Litsenziyalash va nazorat qilish-ruxsat berishning boshqa faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Qonunlar hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning ichki hujjatlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish jarayonidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Tekshiruvlar o‘tkazish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.</p>

Korrupsiyaga oid huquqbazarlikni sodir etganlik uchun javobgarlik.	<p>Korrupsiyaga oid xuquqbazarlikni sodir etganlik uchun intizomiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbazarlikni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaga oid xuquqbazarliklar haqidagi ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida sud amaliyoti.</p>
Korrupsiyaga qarshi fuqarolik jamiyati.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida jamoatchilik nazorati;</p> <p>Huquqiy negilizmni bartaraf etish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining roli;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi ijtimoiy fikr va xulq-atvorni shakllantirish;</p> <p>Ommaviy qoralash choralari;</p> <p>Fuqarolik jamiyati institutlarining O'zbekiston Respublikasi vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi.</p>

